



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

OLIV TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING MA'NAVIV-AXLOQIV FAOLIVATINI RIVJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Batiraliyeva Shahnoza Po'latovna

Renessans ta'lim universiteti, (PhD), dotsent vazifasini bajaruvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarning ma'naviy-axloqiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish va rejalashtirishning samarali mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogika yutuqlari asosida talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish bosqichlari, tamoyillari va omillari o'rganilgan. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi determinantlar tizimlashtirilgan va ularning talabalarning mental tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlangan hamda tarbiyaviy faoliyatni tizimli rejalashtirish modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari bo'lajak mutaxassislarining fuqarolik mas'uliyati, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik va ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy faoliyat, tarbiya, oliy ta'lim, pedagogik mexanizmlar, rejalashtirish, ma'naviy qadriyatlar, determinantlar, mental tafakkur, tyutorlik faoliyati, fuqarolik mas'uliyati.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Батиралиева Шахноза Пулатовна

Университет «Ренессанс образования», (PhD), исполняющая обязанности доцента

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогические основы развития духовно-нравственной деятельности студентов, а также эффективные механизмы организации и планирования воспитательной работы в системе высшего образования. На основе достижений современной педагогики исследуются этапы, принципы и факторы формирования духовно-нравственных качеств студентов. Систематизированы детерминанты, оказывающие положительное влияние на ментальное мышление обучающихся и способствующие их духовно-нравственному развитию. Определены педагогические условия, направленные на повышение эффективности воспитательной работы в высших образовательных учреждениях, и разработана модель системного планирования воспитательной деятельности. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для формирования гражданской ответственности, патриотизма, социальной активности и духовной культуры будущих специалистов.

Ключевые слова: духовно-нравственная деятельность, воспитание, высшее образование, педагогические механизмы, планирование, духовные ценности, детерминанты, ментальное мышление, тьюторская деятельность, гражданская ответственность.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPIRITUAL AND MORAL ACTIVITY IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Batiraliyeva Shahnoza Po'latovna

Renaissance Education University, (PhD), Acting Associate Professor

Abstract

This article examines the pedagogical foundations for the development of students' spiritual and moral activity and effective mechanisms for organizing and planning educational work in the higher education system. Based on the achievements of modern pedagogy, the study explores the stages, principles, and factors influencing the formation of students' spiritual and moral qualities. The determinants that positively affect students' mental thinking and contribute to their spiritual and moral development are systematized. The research identifies pedagogical conditions aimed at improving the effectiveness of educational work in higher education institutions and proposes a model for the systematic planning of educational activities. The findings have significant scientific and practical value for fostering civic

responsibility, patriotism, social engagement, and the spiritual culture of future specialists.

Keywords: spiritual and moral activity, education, higher education, pedagogical mechanisms, planning, spiritual values, determinants, mental thinking, tutoring activities, civic responsibility.

Jamiyatning bugungi holati hamda mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida yuz berayotgan jarayonlar tarbiya muammolariga umumiy, barkamol shaxsni shakllantirish masalalariga esa alohida va yangicha yondashishni taqozo etmoqda. O'zbekistonda oliy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri yuksak ma'naviyatli, intellektual jihatdan rivojlangan, malakali va ijodkor mutaxassislar avlodini tayyorlashdan iboratdir. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni mexanizmlarini takomillashtirishning muhim vazifalaridan biri "Besh muhim tashabbus" asosida tashkil etilgan to'garaklar va klublar faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ni samarali amalga oshirish maqsadida tyutorlar, professor-o'qituvchilar hamda universitetlarning yoshlar yetakchilari malakasini oshirish hisoblanadi. Ta'lim tizimi barcha innovatsiyalarning negizini tashkil etadi. Shu bois ushbu sohada amalga oshirilayotgan innovatsion o'zgarishlar va jarayonlarning samaradorligi butun davlatning izchil taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Bunday sharoitda ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish va rivojlantirish, shuningdek, IT-ta'limni takomillashtirish hisoblanadi. Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda.

2020-yil 25-dekabr kuni yoshlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlarning mafkuraviy tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan xavf-xatarlar va mafkuraviy tahdidlar haqida fikr yuritar ekan, davlat rahbari shunday ta'kidladi: «Afsuski, ayrim yoshlarimiz internetdan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi va madaniyatiga ega emas. Ba'zi yoshlar internetni axborot, bilim va ma'rifat manbai sifatida emas, balki oddiy ko'ngilochar vosita sifatida qabul qilmoqda. Bunday mafkuraviy kurashlar sharoitida yoshlarimiz har tomonlama ogoh va hushyor bo'lishi, eng avvalo, Vatan manfaatlari yo'lida faol harakat qilishi lozim» [2]. Shunday qilib, "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" degan asosiy milliy g'oya Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining mafkuraviy asosi hisoblanadi. Ma'lumki, bugungi kunda yoshlarimiz turli xil axborotlarni nafaqat ta'lim muassasalarida, balki radio va televideniye, matbuot, internet hamda mobil aloqa vositalari orqali ham qabul qilmoqdalar. Global axborot makoni tobora kengayib borayotgan sharoitda har bir talabada ushbu vositalardan to'g'ri, maqsadli va ijobiy yo'nalishda foydalanish madaniyatini hamda mafkuraviy immunitetni shakllantirish bugungi ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish jarayonining tamoyillari va uning mohiyatiga xos xususiyatlari tahlili shuni ko'rsatdiki, elektron resurslar asosida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish tizimini ishlab chiqish va uni tajriba-sinovdan o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak pedagoglarning ma'naviy-axloqiy kamolotini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodlar, shakllar, vositalar, strategiyalar hamda texnologiyalarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish zarur. Mazkur muammolarni bartaraf etish jamiyatdagi murakkab va jadal o'zgarishlar dinamikasiga moslashishning muhim yo'nalishi bo'lib, shaxsning tanlangan faoliyat sohasida intellektual hamda ma'naviy-axloqiy jihatdan muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Talabalar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar sifatini baholash masalasini o'rganishda, avvalo, oliy ta'lim muassasasida tarbiyaviy jarayon qanday asoslarda tashkil etilishini tushunish zarur. Zamonaviy mutaxassisni shakllantirishga qaratilgan oliy ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlar tizimi muayyan universitetning o'ziga xos xususiyatlari, talabalarning kasbiy tayyorgarlik yo'nalishlari, hududning iqtisodiy, tarixiy va milliy xususiyatlari hamda ta'lim muassasasida shakllangan an'analar asosida tashkil etiladi. Tarbiyaviy jarayon oliy ta'lim muassasasining barcha asosiy tarkibiy bo'linmalarida — institutlar, kafedralar va akademik guruhlarda amalga oshiriladi. Ushbu jarayon zamonaviy jamiyat va davlat talabalariga muvofiq ravishda talabalar, professor-o'qituvchilar hamda boshqa xodimlarning tarbiya subyektlari sifatidagi faoliyatini faollashtirishga qaratilgan [1]. Shunday qilib, jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy-madaniy o'zgarishlar ta'lim tizimi pedagogik jamoasi oldiga o'z vaqtida hal etilishi lozim bo'lgan qator tashkiliy, pedagogik va psixologik vazifalarni qo'yimoqda. Talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan yondashuvlar qatoriga tizimli-kognitiv, maqsadga yo'naltirilgan, uzluksizlik tamoyiliga asoslangan hamda Vatanimizning moddiy, ma'naviy va tarbiyaviy merosini qadrlashga yo'naltirilgan yondashuvlar kiradi. Shuningdek, qadriyatlar ustuvorligiga

asoslangan vositali (mediatsion) model negizida oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish mezonlari takomillashtirildi. Jahon pedagogikasi metodlari, talabalarining ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish bosqichlari va tamoyillarini aniqlash hamda mazkur masalaning amaliyotdagi holatini o'rganish asosida biz talabalar ma'naviy-axloqiy sifatlarining rivojlanishiga xizmat qiluvchi determinantlarni tizimlashtirdik (1-jadval).

1-jadval

Talabalarining mental tafakkuriga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi determinantlar.

Determinantlar	Qisqacha tavsifi	Qanday maqsadga xizmat qiladi
Ma'naviy boylik	Inson tafakkuri va intellekti tomonidan yaratilgan ma'naviy meros	Jamiyat taraqqiyoti va ravnaqiga erishish, shuningdek, shaxsning individualligini namoyon etishga xizmat qiladi.
Axloqiy burch	Insonga xos bo'lgan yuksak ma'naviy fazilat.	Burch insonning jamiyatga, davlatga va odamlarga bo'lgan munosabatini hamda ular oldidagi mas'uliyati va majburiyatlarini ifodalaydi.
Ma'naviy jasorat	Namunalar orqali yuksak tuyg'ularni rivojlantirish.	Muayyan faoliyat orqali yuksak tuyg'ular vositasida ma'naviyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.
Ma'naviy ta'sir	Ma'naviyatni yuksaltirish vositalari orqali ta'sir ko'rsatish.	Jismoniy tayyorgarlik, aqliy, axloqiy va ma'naviy yetuklik kabi sifatlar muayyan shaxsda, jamoada, guruhda, jamiyatda va millatda shakllanadi.
Ma'naviy vorisiylik	Milliy-ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, g'oyalar, tajriba va bilimlarni avlodlardan avlodga meros qilib o'tish.	Bu jarayon insoniyat taraqqiyoti davomida to'plangan ma'naviy boylikni avlodlarga yetkazishga xizmat qiladi, odamlarning dunyoqarashi, ma'naviy darajasi, bilimlari va ma'naviyatini boyitadi.
Ma'naviy madaniyat	Insonning ma'naviy xususiyatlari va his-tuyg'ulari.	U jamiyatning madaniy darajasini aks ettiradi.
Milliy o'zlikni anglash	Har bir millat yoki xalqning uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hayot tarzi, ma'naviy va diniy e'tiqodlari, madaniy rivojlanishi asosida vujudga kelgan dunyoqarash, tafakkur, e'tiqod va ishonch tuyg'ularini ifodalovchi tizim.	Milliy o'zlikni anglash tufayli insonda mas'uliyat hissi shakllanadi. O'zini muayyan millat vakili sifatida his qilgan shaxs uning manfaatlarini ongli ravishda himoya qiladi va zarur bo'lganda fidoyilik namunasini ko'rsatadi.

Ko'rinib turibdiki, jadval ma'lumotlaridan kelib chiqib, ma'naviy va psixologik determinantlar o'zaro uzviy bog'liqdir. Inson psixikasi va ijodiy tafakkuri esa ilmiy, badiiy, axloqiy hamda boshqa qadriyatlarga tayanadi. O'zbekiston xalqlarining ma'naviyati uzoq tarixga ega. Bizning ma'naviy merosimiz nihoyatda boy va mustahkam bo'lib, u ming yillik ma'naviy taraqqiyot yutuqlarini o'zida mujassam etadi. Ma'naviyatimiz o'z zaminimizda shakllanib, takomillashib borgan bo'lib, shu bilan birga umuminsoniy ma'naviy yutuqlar ta'sirida ham rivojlangan. O'z navbatida, o'zbek xalqining ma'naviyati boshqa xalqlar ma'naviyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan hamda jahon madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan.

Yevropa olimlarining ta'kidlashicha, Yevropa savodxonlik, fanlar va ularni egallash usullari, dehqonchilik va chorvachilik, dengizchilik, harbiy texnika, tasviriy san'at hamda me'morchilik sirlarini Sharqning boy madaniy merosi va ilmiy an'analar orqali o'rgangan.

Mukammal va axloqan yetuk, fazilatli inson haqidagi g'oyalar X asrda Abu Nasr Forobiy ijodida muhim o'rin egallagan bo'lib, bu g'oyalar o'z davrining ilg'or kishilarini yangi ijtimoiy yutuqlarga ilhomlantirgan. Xalq ijodining namunasi hisoblangan badiiy va musiqiy asarlar xalqimizning buyuk iste'dod egalari tomonidan yaratilgan bo'lib, ular ma'naviy merosning yorqin ifodasidir.

Masalan, Alpomish dostonida xalqimizga xos bo'lgan bag'rikenglik, matonat, olijanoblik, sadoqat va fidoyilik kabi fazilatlar ifodalangan bo'lib, u talabalarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviyat, madaniyat va axloq masalalariga doir g'oyalar buyuk ajdodlarimiz — Abu Rayhon

Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Imom Ismoil Buxoriy, Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy va boshqalarning ijodiy merosida o'z ifodasini topgan [3]. Shu sababli ma'naviy-axloqiy tarbiyaning poydevori mustahkam, uning mazmuni esa nihoyatda chuqurdir. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ildizlari Avestoda ifodalangan "yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi amal" tamoyillarida ham mujassam bo'lib, unda boy urf-odatlar, an'analar, inson obrazi hamda ezgulik g'oyalari aks etgan. Shu bois mustaqillik tufayli mamlakatimizda madaniy qadriyatlar va qadimiy tarixiy yodgorliklar tiklanmoqda, milliy ma'naviy meros esa izchil rivojlanib bormoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot pedagogik oliy ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning holatini aniqlashtirish imkonini berdi. Olingan xulosalar asosida talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha pedagoglar va oliy ta'lim muassasalari tyutorlariga metodik yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan tizimli ishlarning aniq maqsadlari ishlab chiqildi. Shuningdek, talabalarning intellektual va ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi model yaratildi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish mezonlarini baholashda ularning ko'rsatkichlari, ma'naviy-axloqiy sifatlarining namoyon bo'lish darajasi, dinamik xususiyatlari hamda ularning o'ziga xos belgilarini tahlil qilish hisobga olindi. Tadqiqot doirasida oliy ta'lim muassasasida tarbiyaviy faoliyatni tizimli rejalashtirish modeli ishlab chiqildi. Ushbu model quyidagi talablarga javob beradi:

- uning elementlari va tarkibiy qismlarining mazmunan to'liqligi;
- o'zgaruvchilarning muhim qismini o'zgartirish imkonini beruvchi abstraktlik xususiyati;
- vazifalarni hal etish muddatlarini belgilovchi shart va talablarga muvofiqligi;
- modelning zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitning yuqori dinamikasiga mosligi.

Taklif etilayotgan modelning muhim tarkibiy qismlaridan biri takomillashtirilgan normativ-uslubiy baza hisoblanadi, chunki so'nggi yillarda tarbiyaviy ta'lim dasturlari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ta'lim jarayonini kompleks uslubiy ta'minlash uchun o'quv dasturlari, rejalar, tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish metodikasiga oid qo'llanmalar, xususiy metodikalar, o'quv xonalari va laboratoriyalarni jihozlash bo'yicha tavsiyalar, ma'lumotnomalar, masalalar to'plamlari, ko'rgazmali vositalar, texnologik hujjatlar, chellenjlar va boshqa tarbiyaviy vositalarni o'z ichiga olgan optimal uslubiy hujjatlar tizimi zarur hisoblanadi. Ishlab chiqilgan model asosida oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish mezonlari takomillashtirildi. Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlar asosan uch bosqichda shakllanadi va rivojlanadi:

1. **Bilim** – umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'zlashtirish, Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish;
2. **Ishonch** – qadriyatlar haqidagi ijtimoiy bilimlarni amaliy faoliyatga aylantirish;
3. **Faol faoliyat** – shakllangan ishonch va qadriyatlarni amaliy ishlar orqali namoyon etish.

Talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlari ko'rsatkichlarini pedagogik tahlil qilish va baholashda tug'ilib o'sgan hudud qadriyatlarini o'zlashtirish darajasi, ijtimoiy-siyosiy faollik darajasi hamda fuqarolik ishonchining shakllanganlik darajasini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 23-sentabrdagi 563-son buyrug'iga 2-ilova. "O'zbekiston Respublikasi davlat oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik to'g'risidagi nizom".
2. Abdullayeva Sh.A. Uzluksiz ta'lim tahsil oluvchilarida kompetensiyalarini diagnostika qilish: xorij tajribalari bilan qiyosiy tahlil // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2019. – № 8. – B. 3–9.
3. Батыралиева Ш.П. Основные направления воспитательной деятельности в системе современного высшего образования // European Science. – 2020. – № 3 (52). – С. 87–89.
4. Константинова Н.А. Об организации воспитательной работы со студентами вузов в свете Болонского процесса // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2009. – № 5. – С. 22–27.
5. Муминов А.Г. Национальная политика независимого Узбекистана и пути её реализации в духовно-культурной сфере (теория и практика): автореф. дис. ... д-ра полит. наук. Ташкент, 2009. – 54 с.
6. Методика воспитательной работы / под ред. В.А. Слостёнина. – 3-е изд. – М.: Академия, 2010. – 122 с.